

BADIIY MATN USLUBIY-SEMANTIK XUSUSIYATINI YUZAGA CHIQRUVCHI VOSITALAR

*M.J.Qurbonova,
SamDU magistranti*

Annotatsiya: Bu maqola o‘zbek tilshunosligida tilning unsurlari, sintaktik figuralar va bular orqali adabiyotda ularning ahamiyatini izohlaydi. Shu bilan birgalikda, til va adabiyotning aloqasi uzviyligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Oksyumoron, antiteza, takror uslub, poeziya, lingvopoetika, stilistik figura

Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqeyini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Chunki til vositalarining majoziy, ya’ni ko‘chma ma’nolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qo‘llanish zarurati ma’lum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor bo‘lsa-da, ammo ularni badiiy uslubdagichalik bemalol, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yo‘q. Boshqa uslublarda asosan ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan, tilda qisman turg‘unlik kasb etgan tasviriy vositalarga murojaat qilinadi. Badiiy matnda esa tasviriy vositalarning shunday ko‘rinishlariga duch kelamizki, ularni faqat maxsus ijodiy mehnat mahsuli bo‘lgan badiiy tafakkurgina yuzaga keltirishi mumkin.

Badiiy tasvir vositalaridan o‘z o‘rnida mahorat bilan foydalanish zarurdir. “O‘zbek badiiy adabiyoti tili namunalarini o‘rganish jarayonida badiiy tasvir vositalari qamrovi nihoyatda keng va badiiy obraz yaratishdagi, emotsional-ekspressiv nozikliklarni bera olishdagi asosiy vositalardan ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ularning troplar deb ataluvchi qismi obraz yaratishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi bir qismi – uslubiy figuralar esa, garchi obraz yaratmasa-da, ana shu obrazlarning shakllanishiga, barkamol, pishiq bo‘lishiga, o‘quvchining matni

to'g'ri va tez tushunib olishiga ko'maklashadi. Ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan, obraz yaratayotgan til birliklari darajasida bo'lmasa ham, ular vaziyatga qarab qo'shimcha ma'no ifodalaydi, tasvir obyektiga ijodkor bahosini beradi, yuksak emotsionallikni yuzaga keltiradi. O'quvchi yoki tinglovchidagi hissiyotlarning junbushga kelishida tezlashtiruvchi vosita rolini – katalizatorlik vazifasini bajaradi, yozuvchiga ko'makdosh bo'ladi. Badiiy ijodning qiyinchiligi ham shundaki, yozuvchi his-tuyg'ularni o'zi qanoatlanadigan darajada ifodalay oladigan til birligini axaradi. Ularni bir-birlariga chog'ishtiradi, qarama-qarshi qo'yadi, yonma-yon qo'llaydi, takror ishlatadi va hokazo. Zero, troplarning o'zi so'zlarni asl ma'nolaridan ko'ra ko'proq ko'chma ma'noda qo'llashga intilishning natijasidir.”[1.5]

Sintaktik figuralar nafaqat tilimizdagi jozibadorlikni yuzaga chiqaradi va shu bilan birga undagi xalqona soddalik, ravonlik, qochirimlarni ham o'zida aks ettiradi. Uning tinglovchi tomonidan oson va yengil qabul qilinishining sababi ham balki shundadir. Zero, R.Qo'ng'urov aytganlaridek: “Ular badiiy nutqda voqea-hodisalarni obrazli qilib tasvirlash, nutq ifodaligini oshirish, u yoki bu narsaning xususiyati, xarakteri, ko'rinishini qisqa, ifodali, obrazli qilib tasvirlash uchun foydalaniladi”. [7.11]

Sintaktik figuralar nutq jarayonida uning emotsionalligini, ta'sirchanligini oshirishga, kuchaytirishga yordam beruvchi maxsus nutq ko'rinishlari hisoblanadi. Tilshunos olim J.Lapasov ularni ikki turga bo'lib o'rgatadi hamda, leksik vositalar va ekspressiv-stilistik vositalar deya ataydi. Olim leksik vositalarga betaraf so'zlar, arxaizm, neologizm, dialektizm, varvarizm, vulgarizmlarni kiritisa, ekspressiv-stilistik vositalarga troplar va figuralarni kiritadi.

J.Lapasovning fikricha, “Figuralar nutq ta'sirchanligini kuchaytirish, tasviriylikni oshirishga yordam beruvchi maxsus sintaktik qurilish, nutq ko'rinishlaridir. Nutqda figuralar tinglovchiga ko'proq emotsional ta'sir ko'rsatish, gapdan anglashilgan umumiy ma'noni kuchaytirish yoki kamaytirishda sintaktik vosita sifatida ishlatiladi. Troplar so'zlar bilan ish ko'rsa, figuralar gap tuzlishi va gapdan anglashilgan umumiy ma'noga asoslanadi”[5.40].

Sintaktik figuralarning matndagi vazifasini prof.S.Karimov shunday ko'rsatadi: "Uslubiy figuralar asosan poetik asarlar uchun xarakterli bo'lib, ularning o'ziga xosligi nutq jarayonida, ijodkor maqsadidan kelib chiqib, ayrim til birliklarini ma'lum tartib va qoida asosida joylashtirish bilan belgilanadi. Til elementlarini yangi ma'nolarda qo'llash ularning vazifasiga kirmaydi, balki mavjud ma'nolarda ularni nutqda eng ma'qul o'ringa joylashtirib, emotsionallik paydo qilish nazarda tutiladi"[1.43].

Tadqiqotchi S.Komilova esa, "Keyingi yillarda qator fan sohalari boshqa fanlar bilan uyg'unlikda, o'zaro bog'liqlikda o'rganilyapti. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari uyg'unligida yuzaga kelgan lingvopoetika ham ana shunday bog'liqlikning natijasidir. Shu ma'noda, poetik sintaksis adabiyotlarda ta'kidlanganidek, she'rdagi bevosita gap tuzilishi bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Gapni ifoda etishning esa turli usullari mavjud. Ushbu usullar yordamida badiiy so'zning ifodaviyligi kuchayadi, ranginlashadi, ta'sirchanligi oshadi, muallif tomonidan aytilayotgan fikrning tag maqsadi ochiladi",[4.57] - deya ta'rif beradi.

Sintaktik-stilistik figuralar ifodali nutq hosil qiluvchi vosita ekanligi shak-shubhasizdir. Ular shunday vositalari sanaladiki, sintaktik vositalar yordamida tuzilgan nutq shakli to'liq, mazmunli, ifoda va tasviriylikka boy bo'ladi. Bu esa ularning eng xarakterli xususiyatlaridir. Bu haqida "O'zbek tili stilistikasi" kitobi mualliflari shunday fikrni ilgari suradilar: "Sintaktik figuralar nutqni ohangdor, ta'sirchan va jozibali qilish uchun ishlatiladi. Asosan, tinglovchining tushunishiga osonlik yaratadi. Shu jihatdan ular nutq musiqasi deb yuritiladi"[6.64].

Shu jarayonda so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash doim ham ma'qul bo'lgan foydali yo'l, usulmi yoki tildagi so'z boyligining kamligidan kelib chiqadimi degan savol yuzaga keladi va bunga tilshunos olim S.Karimov quyidagicha to'xtalib o'tadilar: "Badiiy adabiyot tilida uslubiy figuralar (filologiyada uslubiy figuralarni "sintaktik figuralar", "ritorik figuralar", "nutq figurasi" va hatto "poetik sintaksis" (garchi poetik sintaksis keng jabhadagi tushuncha bo'lsa ham) atamalarini bilan nomlaydilar) deb ataluvchi tasviriy

vositalarning paydo bo'lishi badiiy ijod namunalari bir qadar go'zal, jarangdor, ta'sirli qilib bayon etish zaruratidan kelib chiqqandir. Sitseronning quyidagi gaplarini eslash maqsadga muvofiq: So'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash eng avvalo lug'atlardagi so'zlarning ma'no jihatdan kambag'alligidan kelib chiqqan bo'lsa, asta-sekin go'zallik va jozibadorlikka bo'lgan ehtiyoj ularning ma'nolarini kengaytira bordi. Bu esa xuddi kiyim dastavval sovuqdan himoyalaniş vositasi sifatida vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik esa kishi tanasini bezaydigan libosga aylanganiga o'xshaydi. Darhaqiqat, ijodkorlar nutqiy jozibadorlik uchun tinimsiz izlanishda bo'ladilar. Ularni ifodalashning yangi-yangi vositalarini izlab topishga harakat qiladilar. Ana shuning natijasi sifatida badiiy adabiyot tilidagi uslubiy figuralarning soni birmuncha ko'p va badiiy ta'sirchanlikning yuzaga kelishidagi salmog'i kattadir"[1.43].

Ilmiy adabiyotlardagi sintaktik figuralarning antiteza, amfiteza, akroteza, apokopa, asindeton (bog'lovchisizlik), assonans, gradatsiya (klimaks, antiklimaks), diateza, zevgma, tovushga taqlid, oksyumoron, padistola, paronomaziya, poliptoton (poliptot), parallelizm, polisenditon (ko'pbog'lovchilik), sanash, pitorik murojaat, ustunlar tengligi, tenglik, sinoykoza, sillepsis, segmentatsiya, uch ustunlik, kichraytirish, jim qolish, xiazm, ellipsis, inversiya kabi turlari qayd etiladi va ularning ko'pi hozirgi zamon poeziyasida, jumladan o'zbek poeziyasida ham faol qo'llaniladi.

Tadqiqotimiz markazida badiiy adabiyotda, jumladan she'riyatda eng ko'p qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalaridan, ya'ni sintaktik figuralardan bo'lmish quyidagi hodisalarni o'rganishga harakat qildik:

- a) antiteza;
- b) oksyumoron;
- d) akromonogramma;
- e) anafora;
- f) epifora.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.– Самарқанд. 1994. –Б 59.
2. Каримов С.Бадиий матннинг услубий аломатлари. –Самарқанд: СамДУ, 1992. –Б47.
3. Каримов С.Ўзбек тилининг бадиий услуби.-Самарқанд: Зарафшон,1992. –Б 122.
4. Комилова С. Шеъринг нутқдаги айрим синтактик фигуралар хусусида./ЎТА. 2001-й. №1. 57-59-б.
5. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил.- Тошкент:Ўқитувчи,1995.–Б 86.
6. Sultonsaidova S., Sharipova O'.O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent. 2009. 64-b.
7. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан,1977. 125-б.
8. Хайруллаев, Х. (2001). Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати. номзодлик диссертацияси автореферати.- Тошкент.
9. Хайруллаев, Х. З. (2012). Об иерархических отношениях между языковыми единицами. Вестник Челябинского государственного университета, (6 (260)), 134-137.
10. Хайруллаев, Х. (2019). Об особенностях изучения объекта речевой лингвистики. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 17-20.